



**INGLIZ TILINI O'QITISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVNING
SAMARADORLIGI**

Sharipova Sarvinoz Sayfiddin qizi

SamDCHTI Ingliz tili o'qituvchisi

Murodova Farangiz Sultonovna

Samarqand davlat chet tillari instituti

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida individual ta'lim yondashuvining nazariy va amaliy asoslari hamda uning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda har bir o'quvchining til o'rganish ehtiyojlari, qobiliyati, psixologik xususiyatlari va motivatsiyasiga moslashtirilgan ta'lim metodlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, individual yondashuvning o'quvchilarning til ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil o'rganish qobiliyatini shakllantirish va motivatsiyani oshirishdagi ijobiy ta'siri ilmiy dalillar bilan asoslanadi.

Kalit so'zlar: ingliz tili, usullar metodlar, o'rganish, individual rivojlanish.

Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda chet tillarini o'rganish jarayoni birmuncha murakkablashmoqda. Ushbu murakkablikning asosiy omillaridan biri — zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining, xususan, smartfon va boshqa mobil qurilmalarning o'quvchilar hayotida haddan tashqari keng tarqalganligidir. Yoshlar ko'pincha ushbu qurilmalarda ta'limiy mazmundan ko'ra ko'proq chalg'ituvchi kontent — qisqa videolar, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'ngilochar materiallarga e'tibor qaratadilar. Natijada individual ta'lim jarayoni, ya'ni o'z-o'zini mustaqil o'rganish faoliyati ikkinchi darajaga tushib qolmoqda.

Bu holat nafaqat ingliz tilini, balki boshqa chet tillarini ham individual o'rganishga bo'lgan qiziqish va motivatsiyani pasaytirib, talabalarning mustaqil bilim olish jarayonini murakkablashtirmoqda. Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar davrida ta'lim jarayonida individual yondashuvni samarali tashkil etish va yoshlarni mustaqil o'rganishga jalb qilish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tilni o'rgatishda doimiy ravishda bir xil usul va metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning zerikishiga sabab bo'ladi, natijada, ularni til o'rganishga bo'lgan qiziqishi so'nishi mumkin. O'qituvchi har bir o'quvchiga individual rivojlanish haqida tushuntirish ishlarini olib borar ekan, har bir til



o'rganuvchining yakka holatda ham ijobiy natijani namoyon qilishini isbotlay olishi lozim. Muntazam bir xillikdan qochib, yangi, o'ziga xos metodlarni tahsil oluvchilarga taqdim etish va bu holatda, til o'rganishga nisbatan qiziqish uyg'otish va ta'lim oluvchining individual shakllanishiga qo'l kelishi mumkin. Ustozning talaba bilan individual shug'ullanishi o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga, mas'uliyatli va irodali bo'lishga, o'z kuchiga ishonib rivojlanishga, katta imkoniyatlar sari olg'a qadam tashlashga imkon yaratadi.

Ingliz tilini o'rgatishda individuallikni rivojlantirish uchun o'qituvchi o'quvchining bilimini oshirishiga sabab bo'luvchi ko'nikmalarni joriy qilish lozim. Masalan, Finlandiya davlatida har bir o'qituvchi eng ko'pi bilan 12 nafargacha o'quvchi bilan shug'ullanadi va bu holatda, dars davomida o'qituvchi o'quvchi bilan yakka holda ko'proq ishlaydi va shu asnoda o'quvchining o'zi ham individual, mustaqil harakat qilishni boshlaydi. Germaniyada esa individual shug'ullanish uchun ta'lim puli joriy etilgan va o'quvchining shart sharoitidan kelib chiqib pul to'lanadi. Bunda o'quvchi o'zini mas'uliyatli his qilishni boshlaydi va tilni mustaqil o'rganishga kirishadi. Amerika Qo'shma Shtatlari talabalarining takliflariga binoan, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi o'z xohishlaridan kelib chiqib, bitta muayyan fanni tanlash imkoniyatiga ega va uni xohlagan muddatgacha o'qiydi. Bu esa universitetda tahsil olayotgan talabani yanada ilm izlanishga chorlaydi, universitet bilan yaxshi aloqada bo'lishga yordam beradi, aynan tayyorlanayotgan fanini mukammalroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Har bir o'qituvchi ta'lim oluvchiga individual yondashuv asosida ingliz tilini o'rganishi lozim. o'zining "Individual yondashuv texnologiyasi mazmuni" deb nomlangan maqolasida Chirchiq davlat pedagogika universitetidan PhD O. Jabborova yakka tarzda, o'quvchilar bilan shug'ullanishni ikki turga bo'lishgan:

1. *Shaxsiy individual yondashuv;*
2. *Guruhli individual yondashuv.*

Birinchi holatda, o'quvchi uchun alohida o'zini o'zi rivojlantirish uchun har xil metodlar taqdim etiladi. Misol uchun, ingliz tilini qulay va qiziqarli qilib o'rganish uchun bloglar va bbc learning english, english cartoons kabi veb-saytlar tavsiya etiladi, o'qituvchi o'quvchiga John W. Cresswell, Thomas S. Kun kabi yozuvchilarning kitoblarini tavsiya etishi mumkin. Bunday hollarda o'quvchilar o'z ustida ko'p ishlashni boshlaydi, individual yondashuv shakllarini yaratadi, intizomli va maqsadli harakatdagi jadvalini qo'llab quvvatlaydi. Bu o'quvchining yanada mukammal bilim egallashi uchun katta turtki bo'ladi. Ta'lim beruvchi o'quvchiga contextual learning (kontekstual o'rganish) tavsiya qilishi mumkin. Bunda o'quvchi hikoya, hayotiy voqeaga



bog‘lab so‘z o‘rganadi va tez eslab qolish imkoniyatini yaratadi. Doimiy o‘qigan kitoblarni qayta ko‘rib chiqish uchun o‘qituvchi o‘quvchining o‘qish jarayonini samarali bo‘lishiga yordam berishi mumkin. Bunda o‘quvchiga Flashcardlar, Anki, Quizletlardan foydalanish tavsiya etiladi va shu tarzda rivojlanishda davom etish o‘quvchini aniq sertifikatlarni yuqori darajada olishga yordam beradi.

Ikkinchi holatda, biz, asosan, guruh bilan birgalikda ishlashga harakat qilamiz chunki bu o‘z nomi bilan guruhli individual shug‘ullanishdir. Bunday holatlarda, sanoqli talabalarni o‘z ichiga olgan hollarda turli interaktiv o‘yinlarni amalda qo‘llagan holda har xil metodlar bilan darslar olib boriladi. Ta‘lim beruvchi tahsil olayotgan talabalarga yanada qiziqarli va mazmunli dars o‘tish turlarini bilishi kerak, shundagina jamoada guruh bilan ishlash osonlashadi. Shu asnoda, talabalar guruh bilan bimalol ishlay oladi va har bir shaxs to‘liq muloqotga kirisha oladi. Kaplan tomonidan 2012-yilda o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, o‘qituvchilar o‘quvchilari uchun guruh bilan ingliz tilini o‘rganishga yordam beruvchi tanlangan eng mashhur beshtalik filmlar quyidagilardir:

1. *Friends (Do‘stlar);*
2. *How I met your mother (Onangizni qanday uchratganim);*
4. *House (Uy);*
5. *The big Bang Theory (Katta portlash nazariyasi).*

Yuqoridagi filmlar talaba va o‘quvchilar ingliz tilini yanada chuqurroq ichiga kirib borishiga katta yo‘l ochadi. Shu bilan birgalikda, Total Physical Response (to‘liq jismoniy reaksiya) kabi mashqlarni bajarishi mumkin. Bu o‘quvchilarga yanada ko‘proq ingliz tiliga oid so‘zlarni yodda saqlab qolishga zamin yaratadi.

Bilamizki, ingliz tili bu global til hisoblanadi va uni individual o‘rganishda, albatta, qiyinchiliklarga duch kelamiz, ammo individual shug‘ullanish darajasini sifatli holatda kuchaytirish va har xil o‘yinlar orqali eslab qolish har bir ingliz tilini o‘rganayotgan insonlar uchun qulayliklar olib kelishi mumkin. Bu o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarni kuchliroq bog‘lashga, ta‘lim oluvchining o‘zi mustaqil ravishda izlanishiga imkon yaratadi. Ta‘lim jarayonidagi qiziqarli va mazmunli darslar nafaqat talabaning rivojlanishiga, balki davlatimizda ingliz tilini yanada oshirishga, ommalashishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D. Qosimova, Q. Qosimov. Ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun qo‘llanma. 2012.– 68 b.



2. John W. Cresswell. Research design: qualitative quantitative and mixed methods approaches. University of Nebraska. 2009 SAGE Publications – 25 p.
3. Thomas S. Kun. International Encyclopedia of United science. The structure of Scientific revolutions. Second edition.
4. Sharipova, S., and F. Xalimova. "Actual problems of teaching a language in the classroom and their solutions." Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit. Vol. 133135. 2024.
5. Baxodirova L. Ingliz tilini o‘qitishda interaktiv usullar. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13300484>.